## III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

### 2023- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3265,7 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 3142,2 mlrd. so‘mni (102,8 %), o‘rmon xo‘jaligi 109,4 mlrd. so‘mni (102,4 %), baliqchilik xo‘jaligi 14,1 mlrd. so‘mni (131,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil qildi.




**3265,7 mlrd. so‘m**

| | | |
|---|---|---|
| 01 | **3142,2** | **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar** |
| 02 | **109,4** | **O‘rmon xo‘jaligi** |
| 03 | **14,1** | **Baliqchilik xo‘jaligi** |

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati**




**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi,** *mlrd. so‘m*




2023- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (280,4 mlrd. so‘m) G'uzor (272,8 mlrd. so‘m) Chiroqchi (267,6 mlrd. so‘m) Koson (266,7 mlrd. so‘m) va Yakkabog' (254,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahar (68,8 mlrd. so‘m) va Shahrisabz shahar (16,0 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

**Hosil yig‘imi**. 2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3,0 ming tonna sabzavot (12,4 foizga kam) yig‘ib olindi.

**2023- yilning yanvar-martida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | Fermer xo‘jaliklari | | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 16 | 42,1 | 2738 | 88,6 | 243 | 83,5 |



**Dehqonchilik**

2023- yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 192,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,2 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3,0 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 12,4 % ga kam) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi)** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi,** *tonna*





## Chorvachilik

2023- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2912,5 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 44,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,1 % ga ko‘p), 145,6 ming tonna sut (2,8 % ga ko‘p), 92,4 mln. dona tuxum (0,1 % ga ko‘p) va 462,1 tonna baliq (26,9 % ga ko‘p) ovlandi.



**2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda), *ming tn.*** | **44,3** | **103,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 1,0 | 103,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 42,7 | 103,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,6 | 94,6 |
| **Sut, *ming tn.*** | **145,6** | **102,8** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 4,8 | 101,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 139,4 | 103,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,4 | 87,8 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **92,4** | **100,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 2,6 | 119,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 59,8 | 104,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 30,0 | 91,3 |

## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 44,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

### Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, *tonna*



## Sut

**Hajmi,** *ming tonna.*




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,** % da*




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 145,6 ming tonna sut (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, *tonna*



## Tuxum

**Hajmi,** *mln.dona*




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da***




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 92,4 mln.dona tuxum (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 0,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, *ming dona*



## Baliq

**Hajmi,** *tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 462,1 tonna (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 26,9 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 87,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi,** *tonna*



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,5 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 86,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 12,5 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 3,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 4,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 77,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 18,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni,** ***ming bosh***




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1681,0 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2022- yilning 1- apreliga nisbatan 36,9 ming boshga (2,2 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, *ming bosh*



## Sigirlar

**Soni,** ***ming bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 547,9 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2022- yilning 1- apreliga nisbatan 11,1 ming boshga (2,1 %) ko‘paydi.

- sigirlar bosh sonining 93,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning bosh soni,** ***ming bosh***



## Qo'y va echkilar

**Soni, *ming bosh***




**O'sish sur'ati, *% da***




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 4865,5 ming boshga yetdi.
- qo'y va echkilarning bosh soni 2022- yilning 1- apreliga nisbatan 129,7 ming boshga (2,7 %) ko'paydi.
- qo'y va echkilar bosh sonining 86,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** | **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** | **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning bosh soni, *ming bosh*



## Otlar

**Soni,** ***bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 33824 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2022- yilning 1- apreliga nisbatan 1083 boshga (3,3 % ) boshga ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 84,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning bosh soni,** ***bosh***



## Parrandalar

**Soni, *ming bosh***




**O'sish sur'ati, *% da***




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 5683,0 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2022- yilning 1- apreliga nisbatan 60,4 ming boshga (1,1%) kamaydi.
- parrandalar bosh sonining 77,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** | **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari** | **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning bosh soni, *ming bosh*

